

YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLARNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

MMTB 2-IDUM Oliy toifali tarix fani

o'qituvchisi Isomiddinova Kamola Umarovna

Ilmiy daraja: Bakalavr

Telefon raqam: +998 91 201 51 91

Pochta manzil: kamolaxonisomiddinova7@gmail.com

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the constitutional guarantees established to safeguard and promote the rights of youth in the Republic of Uzbekistan. It elucidates the progressive provisions introduced in the 2023 Constitution concerning youth development, as well as the legislative and institutional mechanisms embedded in the Law “On State Youth Policy” and relevant presidential decrees. Furthermore, the study explores the modernization of the national education system, the enhancement of youth participation in socio-political life, and the consolidation of legal frameworks ensuring their social protection and professional growth. Particular attention is devoted to the implementation of the “New Uzbekistan – 2030” strategy, which embodies the nation’s long-term vision for sustainable development, civic engagement, and the creation of equitable opportunities for the younger

generation as a decisive factor in the country’s democratic and economic advancement.

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний анализ конституционных гарантий, направленных на защиту прав и интересов молодёжи в Республике Узбекистан. Особое внимание уделяется прогрессивным положениям Конституции 2023 года, касающимся молодёжной политики, а также законодательным и институциональным механизмам, закреплённым в Законе «О государственной молодёжной политике» и

соответствующих указах Президента. В работе рассматриваются процессы модернизации системы образования, повышение социальной и политической активности молодёжи, а также укрепление правовых и

социальных основ, обеспечивающих их развитие и защиту. Акцент сделан на реализации стратегии «Новый Узбекистан – 2030», которая направлена на устойчивое развитие, гражданскую ответственность и создание равных возможностей для молодого поколения, что в конечном итоге способствует демократическому и экономическому прогрессу государства.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlarning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Unda 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yoshlar masalasiga oid ilg‘or normalar, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezident farmonlari orqali yaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar yoritilgan. Shuningdek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, ularning huquqiy, iqtisodiy hamda ma’naviy rivojlanishini ta’minlash borasidagi islohotlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston –

2030” strategiyasining amalga oshirilishi, yoshlar uchun barqaror rivojlanish, teng

imkoniyatlar va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim bosqich.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, yoshlar siyosati, modernizatsiya, konsepsiya, huquqiy

kafolat, davlat siyosati, ijtimoiy himoya, huquq, islohotlar, demokratlashtirish, professional ta’lim.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar masalasi har bir davlat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular – jamiyatning eng faol qatlami bo‘lib, mamlakatning ertangi kunini belgilab beradi. Shu boisdan, O‘zbekiston

Respublikasida yoshlarni qo'llabquvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda Konstitutsiya eng muhim huquqiy asos sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumini orqali qabul qilingan bo'lib, unda yoshlarga oid bir qator yangi normalar mustahkamlandi. Jumladan, yoshlarning ta'lim olish huquqi, kasb tanlash erkinligi, mehnat qilish imkoniyati, ijtimoiy himoya va har sohada davlat tomonidan qo'llabquvvatlanishi kabi masalalar aniq konstitutsiyaviy kafolat sifatida belgilandi. Bu esa o'z navbatida, yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlarning barqaror huquqiy asosini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd etganidek, "Yoshlar – mamlakat kelajagini belgilaydigan kuchdir. Agar ular bilimli, kasb-hunarli va tashabbuskor bo'lsalar, davlatimiz ham shuncha qudratli bo'ladi" [1]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirish, ularning ilmiy jihatdan rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlash - bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning

jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasi - yosh avlodning huquq va manfaatlarini ta'minlash, himoya qilish, ularni jamiyatdagi nufuzini mustahkamlash borasida davlatning asosiy majburiyatlarini belgilab beradi. Unga ko'ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarini himoya qilishni o'z zimmasiga oladi hamda ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini rag'batlantiradi. Ushbu norma yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun huquqiy kafolat hisoblanib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, mazkur modda yoshlarga umumiy o'rta ta'limni bepul olish, sog'liqni saqlash, mehnat qilish, uy-joyga ega bo'lish, dam olish kabi asosiy huquqlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit

yaratish zarurligini belgilaydi. Undan tashqari oliy ta'lim imkoniyatlarining bosqichma-bosqich kengayishi, ilmiy izlanishlar va ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlanishi hamda yoshlarga uy-joy, kredit, stipendiya va grantlar kabi bir qator imkoniyatlarning yaratilishi ham ushbu asosga ko'ra kafolatlangan. [2]

Shuningdek, fikr erkinligi, yig'ilish va birlashmalar, anjumanlarda ishtirok etish, siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar faoliyatida qatnashish imkoniyatlari yoshlarning ijtimoiysiyosiy hayotdagi rolini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati sohasini huquqiy tartibga solishning asosiy manbalaridan biri sifatida 2016-yil 15-sentabrdan kuchga kirgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunni alohida ta'kidlash lozim. Ushbu normativ-huquqiy hujjat mamlakatimizda yosh avlod manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlarini belgilab bergan fundamental hujjat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur Qonun yoshlar siyosatini amalga oshirishning institutsional asoslarini mustahkamlab, ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlash yo'lida muhim bosqichni ifodalaydi. [3] Unga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora tadbirlar tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu davlat dasturi doirasida ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinishi - yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etishga huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6- iyulda kuchga kirgan PF-5106-sonli Farmonini ham O'zbekiston yoshlari uchun chinakam imkoniyatlar manbayi deyish mumkin. Unga ko'ra, yurtimizda 30-iyun "Yoshlar kuni" etib belgilandi. Shu bilan birga, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlarni faolligini oshirish,

yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlarni yaratish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, harbiy-vatanparlikni targ'ib qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshiradigan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. [4]

Demak, yosh avlodga yaratilayotgan imkoniyatlarning konstitutsiyaviy kafolatlari nafaqat huquqiy hujjatlar darajasida, balki amaliyotda ham o'z aksini topmoqda. Bu jarayon "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan hamohang bo'lib, mamlakatning barqaror rivojlanishi va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi imkoniyatlarning bir qismi sifatida ta'lim tizimini oladigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakatimiz o'rta, o'rta maxsus va professional hamda oliy ta'lim tizimida ta'limning yangi konsepsiyasini barpo etish va yoshlarga zamonaviy bilimlar asosida ta'lim berish va tarbiyalashda nafaqat an'anaviy, balki innovatsion yondashuvlardan ham samarali foydalanish va o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishni yo'lga qo'yish kabi islohotlarning amalga oshirilishi - kutilgan natijalarga erishishga olib kelishi shubhasiz. [5]

Ta'lim va tarbiyani demokratlashtirishning mazmuni shundan iboratki, ta'lim-tarbiya mazmunining ochiqqligi, o'quv materiallari, ta'lim shakli va metodlarining xilma-xilligi, milliy va hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, hammaning va har kimning madaniy jihatdan yuksak natijalarga erishishini ta'minlashga imkon beradi. Mazkur tamoyilga amal qilish o'quvchilarning xohishlariga ko'ra o'quv jadvalidan qo'shimcha fanlarning o'rin olishi, yuqori

sinflarda muayyan fanlarning chuqurlashtirilib o'rgatilishi, fakultativ mashg'ulotlar hajmining kengayishi, ta'lim muassasalarida turli yo'nalishlarda bepul to'garaklarni tashkil etilishi, darslarning yakka va guruh asosida o'tkazilishiga e'tibor berilishini anglatadi. Hozirgi davrda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya

qilish masalasi ham davlat siyosatining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasida alohida o‘rin egallab, inson kapitalini shakllantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ta‘lim sohasiga oid konseptual fikr va tashabbuslari, shuningdek, qabul qilinayotgan qaror va farmonlarda o‘z ifodasini topib, milliy ta‘lim tizimini zamonaviy xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish yo‘lidagi izchil islohotlarning nazariy va amaliy asosini tashkil etmoqda. Xususan, Prezidentning 2024-yil 24-maydagi PF-80-sonli Farmoniga asosan, yoshlarning huquqiy bilim madaniyatini erta yoshdan shakllantirish, ularning huquqshunoslik sohasiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni zamonaviy huquqiy bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlashga xizmat qiladigan Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan hamda Samarqand viloyat akademik litseylarini tashkil etilishi ham yuqoridagi fikrlarga misol bo‘la oladi. Akademik litseyning asosiy vazifasi – huquq fanlariga ixtisoslashgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan uzliksiz ta‘lim tizimini shakllantirishdir. Bu orqali yoshlar nafaqat huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi, balki, huquqni qo‘llash amaliyoti, huquqiy tafakkur va fuqarolik mas‘uliyati kabi muhim sifatlarni ham rivojlantiradi. [6]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida yoshlar masalasi har bir davlatning taraqqiyoti va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar huquqlarini ta‘minlash, ularni har tomonlama qo‘llabquvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ayniqsa, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya yoshlar uchun keng imkoniyatlar va mustahkam huquqiy kafolatlarni yaratdi. Unda yoshlarning ta‘lim olish, kasb tanlash, mehnat qilish, uy-joy bilan ta‘minlanish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish huquqlari alohida normalar orqali belgilandi. Bundan tashqari, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, xususan, “Yoshlar kuni”ning joriy etilishi, Yoshlar ittifoqining faoliyati, oliy va professional ta‘limdagi tub islohotlar hamda Toshkent davlat yuridik

universiteti huzuridagi akademik litseylarning tashkil etilishi – bularning barchasi yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga faol jalb etish yo‘lida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir. Yoshlarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki butun jamiyatning barqarorligi, taraqqiyoti va kelajak avlodlarning yetuk insonlar bo‘lib shakllanishini ta‘minlaydi. Ushbu huquqiy va institutsional asoslar “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatda chuqur ildiz otgan islohotlar samarasidir. Demak, O‘zbekistonda yoshlar davlat e‘tiborida bo‘lib, ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat bugunning, balki ertangi taraqqiyotning ham kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida qaror. PQ–5847-son, 8 oktyabr 2019 yil. – Toshkent, 2019.
 2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
 3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 2016 yil 15 sentabr, № 03/16/408/0478.
 4. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-5106, 5-iyul 2016-yil.
 5. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi farmon — PF-5847-son, 2019 yil 8 oktyabrda qabul qilingan.
- Pdfbox+3Lex.uz+3BestPublication+3
6. “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalari mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. PF-80, 24-may 2024-yil.